

KREDIT HAQIDA TUSHUNCHA

Saporboyev Munisbek Zafarbek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi magistranti

Msaporboyevv@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15087210>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit tushunchasi, kredit turlari, kredit prinsiplari, kredit subyektlari, kredit funksiyalari, kredit resurslarining manbalari, kreditning mohiyati, kredit va kredit shakllari to'g'risida tushunchalar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Bank, kredit, prinsip, funksiya, subyekt, resurs, tijorat.

Abstract: This article reflects the concepts of the concept of credit, types of credit, principles of credit, subjects of credit, functions of credit, sources of credit resources, the essence of credit, concepts of credit and forms of credit.

Keywords: Bank, credit, principle, function, subject, resource, commerce.

Аннотация: В статье отражены понятия о понятии кредита, видах кредита, принципах кредитования, субъектах кредита, функциях кредита, источниках кредитных ресурсов, сущности кредита, кредита и форм кредита.

Ключевые слова: Банк, кредит, принцип, функция, субъект, ресурс, коммерция.

KIRISH

Kredit-(lot. creditum – qarz, credo – ishonaman, maqullayman) – pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatlarga qarzga berish. Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor (davlat, bank, korxona, xususiy shaxs va boshqalar), ssuda oluvchi tomon esa debitor (qarzdor) deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdor foydalanish shartlari kayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Kredit muomalasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdir. Lekin har qanday qarz munosabati ham kredit bo'la olmaydi. Kredit munosabatida olingan mablag' qaytarib berilishi, foydalanilgani uchun haq (kelishilgan foizda) to'lanishi, muddatli, ma'lum tovar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlangan bo'lishi, maqsadli ishlatilishi shart. Berilishi muddatlariga ko'ra, qisqa muddatli (1 yilga qadar), o'rta muddatli (1yildan 5 yilgacha), uzoq, muddatli (6 yildan ortiq) kreditga bo'linadi.

Kreditning tijorat, bank, davlat, iste'mol, xalqaro, ipoteka va boshqa shakllari bor. Tijorat krediti – bir xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan beriladi va, odatda, veksell bilan rasmiylashtiriladi. Bank krediti – jismoniy va yuridik shaxslarga pul shaklida banklar tomonidan beriladi. Bank kreditining forfeyting, faktoring, haridorga qarz berish kabi ko'rinishlari bor. Davlat krediti – davlatning qarz beruvchi va qarz oluvchi sifatida ishtirokini nazarda tutadi. Davlat qarz beruvchi sifatida bank tizimi orqali byudjetdan tarmoq, hudud, korxonalarni kredit ajratib moliyalashtiradi. Qarz oluvchi sifatida aholiga davlat zayomlari, obligatsiyalarini sotish bilan jismoniy yoki yuridik shaxslardan qarz oladi, natijada ichki davlat qarzi, chet davlatlardan olingan K.lar hisobidan tashqi davlat qarzi paydo bo'ladi. Iste'mol krediti – aholiga iste'mol tovarlari, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy qurilishi harajatlari uchun, lombardlardagi mulk garovi hisobiga, o'zaro yordam kassasi qarzlari va boshqa ko'rinishlarda beriladi. Xalqaro kredit – muddatli, qaytimli va foiz to'lash shartlari bilan bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki

tovar shaklida beriladigan qarz, shuningdek, chet el obligatsiyalari, chet el korxonalari aksiyalari va b, qimmatli qog'ozlariga fonda olish maqsadlarida kapital qo'yish.

Kredit iqtisodiyotda muhim vazifalarni bajaradi, ularning orasida moliya resurslarini qayta taqsimlash asosiy o'rinda turadi. Kredit yordamida kapitalni bir tarmoqdan ikkinchisiga, bir mulkdordan boshqasiga oqib o'tishi ta'minlanadi. Shu bilan ishlab chiqarishni kengaytirish, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, mablag'larni kapital qo'yishning eng foydali va istiqbolli yo'nalishlarida to'plash imkoniyatlari yuzaga keladi. Kredit resurslarini banklar tomonidan tartibga solish mexanizmlari yordamidapul aylanmasi toraytiriladi yoki ken-gaytiriladi, to'lovga qrbil talabning ko'payishi yoki qisqarishi yuz beradi, bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish rivojiga rag'bat beradi.

Kredit munosabatlarida uning barqaror bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish uchun mamlakatda kredit siyosati olib boriladi. Kredit siyosati tarkibida banklarning foiz siyosati va ajratilayotgan K.larning yo'nalishlari, ularning qaytarilishini ta'minlash, kreditning samaradorligini oshirish, imtiyozlar, yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar oldini olish tadbirlari katta rol o'yvaydi. O'zbekistonda tijorat banklarning kredit siyosati mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini jadal rivojlantirishga yo'valtirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining markazlashtirilgan K.lari mamlakat mustaqilligini mustahkamlashga yo'valtirilgan yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga ajratilmokda. Shuningdek, mamlakat tijorat banklari ham yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga kreditlar ajratish bilan birga kichik va o'rta biznesni qo'llabquvvatlashni ham amalga oshirmoqda. Imtiyozli shartlarda ajratilayotgan kreditlar va mikrokreditlar shular jumlasidandir. Kredit tizimi: Markaziy bank, tijorat banklari, kredit uyushmalari va chet el banklari filiallari va vakolatxonalari. Kredit tizimida Markaziy bank alohida o'rin tutadi va u emissiya maqomiga ega. Mamlakatda kredittizimi faoliyati „O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida“ (1995.21.12), „Banklar va bank faoliyati to'g'risida“ (1996. 25.4) qonunlari bilan tartibga solinadi.

Kredit prinsplari

1. qaytarib berishlilik prinspi.
2. Muddatlilik prinspi.
3. Foiz to'lashlilik prinspi.
4. Ta'minlanganlik prinspi.
5. Maqsadlilik prinspi.

Kredit – tegishli tamoyillar asosida (qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadlilik) qiymat va moddiy buyum ko'rinishida, jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etiladigan iqtisodiy kategoriyalarning bir shaklidir" Kreditnig funksiyalari. Kreditlar odatda birinchi toifali garov ob'ektlari bilan ta'minlanadi.(yer, oltin va boshqa metallar).

Kredit subyektlari

- Banklar.
- Nobank kredit tashkilotlari, kredit uyushmalari, lombardlar, mikromoliyalash tashkilotlari, kredit korporativlari va boshqalar.
- Korxonalar.
- Jismoniy shaxslar.
- Davlat.
- Davlat organi.

- Halqaro moliya kredit tashkilotlari.

Kredit munosabatlarining subyekti bo'lib kreditor va kredit oluvchi hisoblanadi, kreditning obyekti bo'lib pul va tovar hisoblanadi. Kreditning ikkita asosiy shakli mavjud:

1. Bank krediti
2. Tijorat krediti

Bank kreditining obyekti bo'lib **pul** mablag'lari hisoblanadi. Tijorat kreditining obyekti **tovarlardir**.

Kredit funksiyalari

1. Haqiqiy pullarni kredit operatsialari orqali almashtirish funksiasi.
2. Qayta taqsimlash funksiasi- kredit vositalari vaqtinch bo'sh turgan mablag'larni unga muxtojlar foydasiga qayta taqsimlanadi.
3. Kredit muomala vositasini yaratish funksiyasi.(kredit muomala vositasi bular veksel,banknot va chek)

Kredit resurslarining manbalari

Kredit resurslarining asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

1. korxonalarining amortizatsiya ajratmalari;
2. mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari;
3. korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari;
4. korxonalar foydasi. Ular davlat byudjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, shuningdek uning tegishli qismi korxona ehtiyojlari uchun foydalanguncha bankdagi hisoblarida saqlanadi;
5. bankdagi byudjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari;
6. aholining bo'sh pul mablag'lari.

Mohiyati

Takror ishlab chiqarish jarayonida vaqtincha bo'sh pul resurslari hosil bo'lishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari va sohalarida qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ladi. Avvalo kredit qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Uning yordamida korxonalar, davlat va aholining bo'sh pul mablag'lari ssuda fondi shaklida to'planib, keyin bu mablag'lar kredit mexanizmi orqali iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini hisobga olib qayta taqsimlanadi. Shu orqali kredit ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, kredit pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va hokazo) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik amaliyotiga joriy etish vazifasini bajaradi. Uchinchidan, kredit naqd pullar o'rniga kredit pullarni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan muomala xarajatlarini tejash vazifasini bajaradi. To'rtinchidan, kredit ssuda fondining harakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini bajaradi. Beshinchidan, kredit o'z muassasalari orqali iqtisodiy subyektlar faoliyati ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi. Nihoyat, kreditning o'ziga xos vazifasi iqtisodiyotni tartibga solish hisoblanadi. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi. Kredit bir qator turlarda amalga oshiriladi.

Kredit turlari

Tarixiy taraqqiyot davomida kreditning ikki – pul va tovar shakllaridan foydalanib kelingan. Hozirgi vaqtda mamlakat ichki aylanmasida pul kreditidan kengroq foydalanib, u bank, tijorat, davlat, iste'mol va xalqaro kredit shakllarini oladi.

- **Bank krediti** – kreditning asosiy va yetakchi shakli sifatida chiqadi. U pul egalari – banklar va maxsus kredit muassasalari tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) pul ssudalari shaklida beriladi.
- **Xo'jaliklararo kredit** – bir korxona (muassasa) tomonidan ikkinchisiga beriladi va ularning kapital qurilish, qishloq xo'jaligi sohasidagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo'jalik hisobi bo'g'inlari bilan munosabatlariga xizmat qiladi.
- **Tijorat krediti** — bu korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga beradigan kreditlaridir. Tijorat krediti, avvalo, to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida beriladi.
- **Iste'mol krediti** – xususiy shaxslarga, hammadan avvalo, uzoq muddat foydalanadigan iste'mol tovarlari (mebel, avtomobil, televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma'lum muddatga beriladi. U chakana savdo magazinlari orqali tovarlarning haqini kechiktirib to'lash bilan sotish shaklida yoki iste'mol maqsadlarida bank ssudalari berish shaklida amalga oshiriladi. Iste'mol kreditidan foydalanganlik uchun ancha yuqori foiz undiriladi.
- **Ipoteka krediti** – ko'chmas mulklar (yer, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriladi. Bunday ssudalar berish vositasi, banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.
- **Davlat krediti** – kredit munosabatlarining o'ziga xos shakli bo'lib, bunda davlat pul mablag'lari qarzidori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadi. Davlat krediti mablag'lari manbai bo'lib, davlat qarz obligatsiyalari xizmat qiladi. Davlat kreditning bunday shaklida, avvalo, davlat byudjeti kamomadini qoplash uchun foydalanadi.
- **Xalqaro kredit** – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatini namoyish qiladi. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.

So'nggi vaqtlarda kreditlashning lizing, faktoring, forfeyting, trast kabi shakllari keng rivojlanib bormoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak kredit hozirgi zamonda juda ommalashgan bank operatsiyalaridan biri hisoblanadi va banklarda xar xil turdagi kreditlar mavjud. Jismoniy yoki yuridik shaxslar o'ziga kerakli kredit bo'yicha banklarga arizalar qoldirib kredit shartnomasi tuzushi mumkin. Kredit olish yildan yilga yengillashib hozirgi kunda uydan chiqmagan holda mobil telefon orqali shaxsingizni tasdiqlab oylik plastik kartangiz orqali o'zingizga kerakli bo'lgan mikroqarzlarni olish imkoniyati paydo bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil